



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA
YOSHLAR MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY**

KONFERENSIYA

**MATERIALLARI
TO'PLAMI**

TOSHKENT - 2026-YIL

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA
ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**“GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR
MA'NAVIYATI”**

**MAVZUSIDAGI 2026-YIL 22-APREL RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI
materiallar to'plami**

Toshkent shahri-2026

“Globallashuv sharoitida yoshlar ma’naviyati” mavzusidagi 2026-yil 22-aprel respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to’plami. Toshkent, “LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti, 2026. 355-bet.

Mas’ul muharrir:
Abdurazakova K.Y.
Siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PHD)

To’plab, nashrga tayyorlovchilar:
A. Bo’ronov, N. Nazarov, A. Yarkulov, S. Abdusalomova, B. Xaytboyev.

Annotatsiya

Mazkur respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to’plami "O'zbekiston – 2030" strategiyasi hamda "Yangi O'zbekiston — ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi doirasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosiga bag'ishlangan. To'plamda globallashuvning yoshlar dunyoqarashiga ta'siri, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy talqinlar, shuningdek, mustaqillik yillarida O'zbekistonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti masalalari chuqur tahlil etilgan. Alohida e'tibor yoshlarning axloqiy va valeologik strategiyalarini shakllantirish hamda ularda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashga qaratilgan. To'plam tarkibidan soha mutaxassislari bilan bir qatorda, "Kelajak vorislari" sho'basi doirasida iqtidorli magistr va talabalarning ham ilmiy izlanishlari o'rin olgan.

Аннотация

Данный сборник материалов республиканской научно-практической конференции посвящен реализации задач, определенных в рамках стратегии «Узбекистан – 2030» и концепции «Новый Узбекистан — просвещенное общество». В сборнике глубоко анализируются вопросы влияния глобализации на мировоззрение молодежи, социально-политические и философские интерпретации, а также экономическое и культурное развитие Узбекистана в годы независимости. Особое внимание уделено формированию нравственных и валеологических стратегий молодежи, а также укреплению их идеологического иммунитета. Наряду со статьями ведущих специалистов, в сборник вошли научные изыскания одаренных магистров и студентов в рамках секции «Наследники будущего» (Kelajak vorislari).

Annotation

This collection of republican scientific-practical conference materials is dedicated to the implementation of tasks defined within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy and the "New Uzbekistan — Enlightened Society" concept. The collection provides a profound analysis of globalization's impact on the youth's worldview, socio-political and philosophical interpretations, as well as the economic and cultural development of Uzbekistan during the years of independence. Special focus is placed on forming the moral and valeological strategies of young people and strengthening their ideological immunity. Along with the works of established experts, the collection features scientific research by talented graduate and undergraduate students within the "Successors of the Future" (Kelajak vorislari) section.

In general, the awareness of national identity in the renewed Uzbekistan, the social support of youth is one of the top priorities of state policy. Today, there are more than 22 million young people in the country, and they are seen as a major social and economic force. For this, our state has allocated from 50 million to 200 million soums in grants to increase the social activity of young people, social protection and employment, and to attract them to entrepreneurship and innovative projects. In particular, the social adaptation of young people is promoted through distance learning and training in modern professions, and attention is paid to their spiritual encouragement, and special badges and awards have been established for talented young people, which will strengthen their position in society.

References:

1. From the speech of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at the 72nd session of the UN General Assembly. <https://president.uz/uz/lists/view/1063>
2. V. Kuchkarov. "Awareness of national identity is a factor of stability and development" (Monograph). - T.: "Akademiya" publishing house, 2017. 5 p.
3. Ganieva M.K. Latipoova N.M. Social activity of modern Uzbekistan youth. Sotsiologicheskie science 2018.41 pages.
4. What tasks related to youth are defined in the "Uzbekistan-2030" strategy? <https://pm.gov.uz/uz/lists/view/2027>

YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI

Nazarov Nasriddin Ataqulovich,

Falsafa fanlari doktori, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori.

Tel: +998-90-9150288.

E-mail: nasrid@mail.ru

Doi: 10.52773/tsuull.conf.2026.22.04/TCGL2740

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarda o'zlikni anglash rivojida tarixiy qadriyatlarning o'rniga e'tibor qaratiladi. Xususan tarixiy qadriyatlar sarchashmasi bo'lgan ilk turkiy yozma manba – O'rxun yodgorliklaridagi tarixiy hikmatlar, ularda o'zlikni anglash, chunonchi vatanparvarlik va el birligini ta'minlashdagi o'zni masalalariga e'tibor qaratiladi. Toshbitiklardagi hikmatlarning bugungi

kunda ham hamjihatlik va vatanparlikni ta'minlashda ma'naviy g'oyaviy tarbiya manbai ekanligi masalalari tahlil etiladiki, ushbu jihatlar yoshlarda o'zlikni anglash rivojida muhimdir.

Kalit so'zlar: *Yoshlar, o'zlikni anglash, tarixiy qadriyatlar, vatanparvalik, O'rxun yodgorliklari, hamjihatlik, bitiktoshlar, el birligi, Turkologiya.*

РОЛЬ ИСТОРИЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В ПОВЫШЕНИИ САМОСОЗНАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Резюме: В данной статье рассматривается роль исторических ценностей в развитии самосознания молодежи. Особое внимание уделяется истокам исторических ценностей — первым тюркским письменным памятникам. Анализируются исторические изречения в Орхонских надписях, их значение в формировании идентичности, патриотизма и обеспечении единства народа. Автор доказывает, что мудрость, запечатленная в каменных письменах, и сегодня остается источником духовного и идеологического воспитания в укреплении солидарности и любви к родине, что является ключевым фактором в развитии самосознания современного поколения.

Ключевые слова: *Молодежь, самосознание, исторические ценности, патриотизм, Орхонские памятники, солидарность, древнетюркские надписи, единство народа, тюркология.*

THE ROLE OF HISTORICAL VALUES IN ENHANCING SELF- AWARENESS AMONG YOUTH

Abstract: This article focuses on the significance of historical values in the development of self-awareness among young people. In particular, it examines the primary sources of historical values — the Orkhon inscriptions, which are the earliest Turkic written monuments. The author explores historical wisdom within these inscriptions and their role in establishing identity, fostering patriotism, and ensuring national unity. The analysis highlights that the wisdom found in these stone inscriptions remains a vital source of spiritual and ideological education for promoting solidarity and patriotism today, serving as a fundamental element in the evolution of youth self-awareness.

Keywords: *Youth, self-awareness, historical values, patriotism, Orkhon monuments, solidarity, inscriptions, national unity, Turkology.*

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot bevosita insoniyatning birlik va hamjihatligi tufaylidir. Tafakkur taraqqiyotida o'zlikni anglab, vatanparvarlik, birlik va elparvarlikni

ta'minlash doimo bunyodkor g'oyalar sifatida el muvaffaqiyatini ta'minlab kelganligi bilan e'tiborli. Tarixiy taraqqiyot davomida o'zlikni anglashni yuksaltirish orqali vatanparvarlik va el birligini ta'minlash doimo yetakchilar hamda ziyolilarning diqqat e'tiborida bo'lib kelganligi manbalardan ma'lum. Xususan, VII asrning oxiri va VIII asrning boshlarida O'rxun yozma yodgorliklari sifatida e'tirof etilgan qadimgi turkiy mutafakkir Yo'llig' tegin – Kultegin, Bilga hoqon, Qutlug' Elterish hoqonlar sharafiga qo'yilgan yozma yodgorliklarning muallifi sifatida tarixiy meros qoldirganligi bilan ahamiyatli. Yo'llig' tegin teran tafakkur sohibi turkiy ma'naviyat va ma'rifatning tamal toshini qo'ygan mutafakkir sifatida turk hoqonligi davrida o'ziga xos o'rin egallaganligi O'rxun toshbitiklaridagi ma'lumotlardan ayon. Yozuvlarda qadimgi turklarning madaniy turmush darajasi, adabiy imkoniyatlari, tarixiy voqye'alar in'ikosi, tafakkur kengliklari ifodalanganligi bilan diqqatni jalb etadi. Ushbu jihatlar bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmasdan, aksincha, jamiyat a'zolari, jumladan yoshlarda o'zlikni anglashni rivojlantirish orqali vatan taraqqiyotiga hissa qo'shishni ta'minlab borishda muhim.

Turklar ko'chmanchi va o'troq madaniyatga mansub superetnos sifatida insoniyat ijtimoiy-madaniy taraqqiyotga hissa qo'shib kelganligi tarixdan ayon. Shuningdek, turkiy xalqlar umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lgan turkiy madaniyatga asos solib, tarixiy taraqqiyot davomida ijtimoiy-madaniy jarayonlar rivojini ta'minlab keldi. Albatta, madaniyat, urf-odat va an'ana yozuvdan minglab yillar oldin shakllanib, madaniyatning nisbatan yuqori bosqichi yozuvni vujudga keltiradi. "Qadimgi turklarning tarixiy, madaniy va intellektual xazinasi boshqa xalqlarning ma'naviy salohiyati kabi uzoq vaqt davomida shakllangan, moddiy madaniyatda mujassamlangan, bilim va ko'nikmalarni ishlab chiqarishda avlodlarga o'tib kelgan» [Joldasbekov, Sartkojaulы, 2006: 8-9]. Albatta, turkiy xalqlar hamda ularning madaniyatga mansublik xislatlari haqida gap ketganda turkiylarni ko'chmanchilik madaniyati bilan bog'lash an'analari ilmda ustuvor mohiyatga ega. Lekin, bu ajdodlarimizni butunlay ko'chmanchi bo'lgan, o'troq madaniyat turkiylarga yot degani emas. Ko'chmanchilik madaniyatida mujassam bo'lgan passionarlik salohiyati dunyoni turklarga tanitgani kabi, turklarni ham dunyoga tanitdi. Turklar

o'troqlashib, ilgari umuminsoniy sivilizasiyaga hissa qo'shib kelgan bo'lsa, endi sivilizasiyalashuv jarayonlarining boshida turdi. Qoraqurum, Beshbaliq, Sig'naq, Tarsakent, Balasog'un, Paykent, Marv, Buxoro, Samarqand va hokazo shaharlar turkiy o'troq madaniyatning real in'ikosi sifatida ilk o'rta asrlar, o'rta asrlar ham ayrimlari bugungi kunda ham ajdodlarimizning elparvarlik xislatlari namunasi sifatida savlat to'kib turiptiki, ularning tadqiqi va targ'ibi yoshlarda tarixiy o'zlikni anglashni yuksaltirishda muhim. Ma'lumki, ko'chmanchilik va o'troq madaniyati turkiy xalqlarga xos bo'lib, ularning o'zaro mujassamlashgan hosilasi turkiy sivilizasiyani vujudga keltirganligi e'tiborlidir. "Uch ming yil davomida ikki sivilizasiya: ko'chmanchi va o'troq, nisbiy ichki avtonomiyani saqlab, bir-biri bilan yonma-yon rivojlanib, bir-birini yanada boyitib, yagona umumiy sivilizasiya yaratdilar. Ko'chmanchilar orasida tug'ilgan gumbaz me'morchiligi butun dunyo bo'ylab tarqalib, dunyo xalqlarining mulkiga aylandi; shahar aholisining ustaxonalarida paydo bo'lgan hunarmandchilikni ko'chmanchi xalqlar o'zlashtirdi» [Tursunov, 2001: 8]. Bunday umumiy sivilizasiya turkiy sivilizasiya sifatida umuminsoniy taraqqiyotning rivojiga hissa qo'shib keldiki, turkiy xalqlarga xos bo'lgan bunday bunyodkorlik salohiyati vatanparvarlik, birlik va elparvarlik xislatlarining rivojini ta'minlab keldi.

Qadimgi turklar tarixi va madaniyati ayrim xorijiy manbalar bilan bir qatorda tarixiy qadriyatlarimiz namunalari bo'lgan turk tilida yozilgan bitiktoshlarda o'zining ifodasini topgan. Turkiy madaniyatning ilk namunalari O'rxun yozma yodgorliklarining tarixiy mohiyatiga e'tibor qaratgudek bo'lsak, unda: «Otamni xon sifatida, onamni esa xotun sifatida e'zozlab ko'kka ko'targan osmon: "Turk xalqining ismi va shon-sharafi so'nmasin!", Qabilalarini bergan osmon (xonning hukmronligi ostiga) (bu safar ham): «Turk xalqining nomi va shon-shuhrati so'nmasin» dedi: "Bu ism yo'q bo'lib ketmasligi uchun ham osmon meni ko'tardi (va xon qildi)» [Radlov, 1897: 23], - degan hikmatlar mavjud. Ushbu bitiklar shavkatli turk elining abadiyatga daxldor ekanligini, samoviy ruhlar turk yetakchillarini doimo qo'llav-quvvatlab kelishi iftixor hissi bilan qayd etiladiki, ushbu satrlar bugungi kunda ham yoshlarimiz orasida birlik va elparvarlik tuyg'usini yuksaltirishda tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, ularda iftixor tuyg'usini, faxru g'ururni, vatan va el taqdiri uchun mas'ullik hissini, umumiy

taqdir uchun birlashish mas'uliyatini yuksaltiradi. Ushbu jihatlar bugungi ma'naviy yangilanishlar sharoitida, jamiyatning ijtimoiy-madaniy yuksalishida muhimdirki, o'zlikni anglash bevosita ushbu omillardan ozuqa oladi.

Ma'lumki, tarixiy tafakkur ajodlarimiz tomonidan ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot sharoitida yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarning inson yoki muayyan guruh ongda aks etib, namoyon bo'lib, el va yurt manfaatlari yo'lida xizmat qilish ishtiyoqining ustunlik darajada namoyon bo'lishidir. Shu bois, har bir shaxsda tarixiy tafakkur o'zligini anglab, tarixiy qadriyatlariga sodiq bo'lib, elparvarlik va vatanparvarlik xislatining tafakkurda mustahkam qaror topishidir. Insonning insoniy mohiyatini ong tashkil etar ekan, demak ong va tafakkur har bir shaxs, jamoa, etnik guruh, etnos, millat va superetnosning umuminsoniy sivilizasiya bosqichlaridagi o'rnini anglashida ham o'ziga xos ahamiyatga ega. Tarixiy tafakkur ijtimoiy ongda vorisiylik xususiyatini rivojlantiradi. Va bunday vorisiylik asosida tarixiy merosga mansubligi rivojlanib boradi. Tafakkurda yuz berayotgan bunday evrilishlar sharoitida har bir shaxs o'zining o'tmishiga hurmat va ehtirom asosida munosabatda bo'lishi taqozo etiladi. Shuningdek, tarixiy tafakkurda madaniy yoki ma'naviy merosga mansublikni ifodalashda har bir ijtimoiy-tarixiy davrga xos bo'lgan yo'naltiruvchi g'oya zaruriy ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida tafakkurda birlik, elparvarlik va vatanparvarlik xislatlari rivoji bevosita ushbu omil bilan bog'liq. Ushbu jihat tabiiy ravishda el birligi yo'lida kamarbasta bo'lishni taqozo etadi.

Ajdodlarimiz o'z etnotarixiy taraqqiyot bosqichlarida jamiyat a'zolari tafakkuriga ezgulikka va bunyodkorlikka chorlovchi g'oyalarni singdirib kelganki, buni tarixiy tafakkurda o'z izini qoldirgan ma'naviy meros namunalari ham tasdiqlaydi. Eramizdan oldingi davrlarda ajdodlarimiz e'tiqod qilib kelgan Zardushtiylik dinining «Avesto» kitobidagi g'oyaviy konsepsiya – «Ezgu fikr, ezgu so'z va ezgu amal», misolimizning yorqin dalilidir. Undan so'ng ham ajdodlarimiz o'z etnotarixiy taraqqiyotini g'oyalarsiz tasavvur eta olmasdan, o'z zamondoshlarini muayyan ezgu maqsad atrofida birlashtirib, kelajakka intilish lozimligini uqdirib kelgan. Turkiy xalqlarga xos Tangrichilik e'tiqodida, shuningdek qadimgi turkiy yozma yodgorliklari bo'lgan O'rxun bitiktoshlarida yaqqol ifodalanib, Kul-tegin va Bilga hoqon

yodgorliklari misolida bularni uchratishimiz mumkin. Bugungi, milliy o'zlikni anglab, tarixiy tafakkur rivojlanayotgan bir sharoitda o'tmishga mehr va muhabbat hissini tarbiyalash muhim. Buning uchun tarixiy ongni yuksaltirish, qadriyat sifatida tarixga xolisona munosabatni shakllantirish e'tiborlidir. «Albatta, hych bir xalq, hych bir mamlakat o'z o'tmishini anglamasdan va hurmat qilmasdan yashay olmaydi, bu shuningdek, boshqa davlatlar va xalqlarning tarixi haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishni ham taqozo etadi. Hozirgi sharoitda yangi tarixiy madaniyat shakllanayotganligi kuzatilmoqda. Turli xil ma'lumotlarga, hayotiy tajribaga va ijtimoiy mavqyega ega bo'lgan odamlar asosiy qadriyatlar sanalgan o'z xalqi va vatanidan g'ururlanishga, fidoyilik, birlik, jasorat, halollik, adolat singari tarixiy tajribalardan kelib chiquvchi xususiyat va xislatlarni o'ziga singdirib, o'zga xalqlar va davlatlar bilan totuvlik va konstruktiv hamkorlik asosida yashashni o'zining hayotiy prinsipi sifatida qabul qilishi lozim. Ushbu jihatlarni bevosita tarix bergusidir» [Narod, 2014: 63-64]. Demak, tarix va tarixiy qadriyatlar targ'ibi jamiyat a'zolarida o'zlikni anglab, tarixdan saboq chiqarish hamda faxr-iftixor hissini ham rivojlantiradiki, ushbu jihatlar jamiyat a'zolarida o'zlikni anglashni ta'minlab borishi bilan e'tiborlidir. Va bu jihatlar tafakkurda birlik, vatanparvarlik va elparvalik tuyg'usining rivojini ta'minlashda ham muhim. Shuningdek, o'zga xalq va millatlar bilan umumiylik jihatlarni ham topa bilish va bu jihatga urg'u berish, bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlariga xos bag'rikenglik tamoyilini ham ta'minlab boradiki, o'zaro do'stlik va hamjihatlikning ta'minlanishida – bu o'ta zaruriy omildir. Shu bois, toshbitiklardagi qadimiy yozma yodgorliklardagi hikmatlar targ'ibi tarixiy ongni yuksaltirib, jamiyat a'zolari tafakkurida g'oyaviy omillarning ustuvorligini ta'minlashda o'tmish qadriyatlaridan foydalanish – tarixning kelajak taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyatini ko'rsatadi.

Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot natijasida har bir bosqichning ijobiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan holda turkiy xalqlar ma'naviyati yuksalib, asrlar davomida to'plangan xalq madaniyati va ma'naviyati vorisiylik an'analari asosida keyingi avlodlarga uzatila bordi. Shuningdek, tashqi ijtimoiy-madaniy ta'sirlar ichki ta'sirlar bilan boyib, xalqchil mohiyat kasb etib boraverdi. Ayniqsa, islom dini sharoitida

ajdodlarimiz tarixiy-ma'naviy taraqqiyot davomida to'plagan o'z tafakkur boyliklari, an'ana va urf-odatlaridagi ijobiy xislatlarning barisini ushbu tinchlikparvar din tarkibiga singdirib yubordiki, bugungi kunda biz e'tiqod qiladigan ma'rifiy islom o'zida ko'proq xalqchil jihatlarni mujassam etib, unda milliy mentalitetimizning ijobiy qirralari singdirilganligi bilan e'tiborlidir. Shu bois, yoshlarda o'zlikni anglashni rivojlantirish orqali, ularda birlik, hamjihatlik, elparvarlik va vatanparvarlik xislatlarini yuksaltirishda ushbu omildan ham foydalana bilishimiz lozim.

Tarixiy qadriyatlar sarchashmalari bo'lgan O'rxun yozma yodgorliklarida ajdodlarimizga xos bo'lgan mardlik, tantilik, birlik va vatanparvarlikning aks etishi hamda bugungi kunda ularni talqin etib, targ'ib qilish milliy qadriyatlarimiz rivojini ta'minlash bilan bir qatorda jamiyatimiz a'zolari, xususan yoshlar tafakkurida vatanga va elga muhabbat hissining rivojini yuksaltirib boradiki, bugungi yangilanishlar sharoitida o'zlikni anglab, vatanparvarlik va el birligini yanada ta'minlab borishda ushbu omil muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Joldasbekov M., Sartkojaulı K. Atlas Orxonskix pamyatnikov. – Astana: Kultegin, 2006. – S. 8-9.
2. Tursunov Ye.D. Drevnetyurkskiy folklor: istoki i stanovleniye. – Almaty: «Dayk-Press», 2001. – S. 8.
3. Batmanov I.A. Yazyk yeniseyskix pamyatnikov drevnetyurkskoy pismennosti. – Frunze: Izd-vo AN Kirgizskoy SSR, 1959. – S. 10.
4. Radlov V.V., Melioranskiy P.M. Drevne-tyurkskiye pamyatniki Kosho-Saydam . – Sankt-Peterburg': Tipografiya imperatorskoy Akademii Nauk, 1897. – S. 23.
5. Narod v potoke istorii. Nauchnaya seriya /Sostaviteli T.Shanbay, A.Ibrayeva. – Astana: Folliant, 2014. – S. 63-64.
6. Imomnazarov M. Milliy ma'naviyatimiz nazariyasiga chizgilar. – Toshkent: «Sharq», 1998. – B. 9.

IJTIMOIIY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.

Abdurazakova Kamolaxon Yusupovna
Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat o'zbek tili

MUNDARIJA.

T\ r	Mavzusi	beti
I. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR FALSAFIY TALQIN		
1.	Sirojiddinov Sh.S. KIRISH SO'ZI.	4
2.	Jamolidinova O.R. TABRIK SO'ZI.	6
3.	Yunusov K.A. GLOBALLASHUV VA O'ZBEKISTONDA, YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHGA INNOVATSION YONDASHUV	8
4.	Kushayev U.R. QISQA FORMATLI MEDIKONTENT VA YOSHLAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHI	13
5.	Sultonova N.E. SHARQ OILALARIDA MEHR VA MUHABBAT KO'RINISHLARI.	19
6.	Mamatqobilov T., Ergasheva R., Saydirasulova D. FAVQULODDAGI HOLATDA AHOLI BILAN PSIXOLOGIK ISHLASH VA KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISH USULLARI	23
7.	Islamova D.X., Abdusattorov A.B. YOSHLARDA TINCHLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING FALSAFIY MAZMUN-MOHİYATI	28
8.	Islamova D.X. YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA YOSHLARDA MA'NAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI	32
9.	G'ulamov O.G'. YOSHLAR MA'NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA IJTIMOİY OMILLARNING AHAMIYATI	37
10.	Ibrogimova G. MA'NAVIY TANLOVNING IJTIMOİY MOHIYATI VA UNING QADRIYATLAR TIZIMIDAGI O'RNI.	42
11.	Ahadov SH. CHINA AND BELT AND ROAD INITIATIVE IN	47

	CENTRAL ASIA.	
12.	Jumaqulova N., Arolova Z. GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY ADABIYOTNING O'RNI	56
13.	Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV VA YOSHLAR MASALASINING FALSAFIY TALQINI	61
14.	Ibragimov B.I. TALABALARNING DAVLAT VA JAMIYAT OLDIDAGI IJTIMOY MAS'ULIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ANTROPOSENTRIK YONDASHUVLAR MAZMUN MOHIYATI	65
15.	Shirnova Y.T., Isakulova S.E. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK TILINING LINGVOMADANIY TRANSFORMATSIYASI: YOSHLAR NUTQI MISOLIDA	71
16.	Mirsoliyeva N. YOSHLAR MASALASI VA ULARNING DUNYOQARASHINI KENGAYTIRISHNING FALSAFIY IJTIMOY OMILLARI	75
17.	Karimov F. O'ZBEKISTONDA OILAVIY AJRIMLARNING SABABLARI VA ULARNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK OQIBATLARI	79
II. YOSHLAR DUNYOQARASHINI YUKSALTIRISHNING IJTIMOY-SIYOSIY OMILLARI		
18.	Omonov B. YOSHLAR SIYOSIY MADANIYATI VA MILLIY O'ZLIK MASALASIGA DOIR	85
19.	Kuchkarov V. PRAGMATIC ASPECTS OF NATIONAL SELF-CONSCIOUSNESS IN INCREASING YOUTH SOCIAL ACTIVITY	93
20.	Nazarov N. YOSHLARDA O'ZLIKNI ANGLASHNI YUKSALTIRISHDA TARIXIY QADRIYATLARNING O'RNI	101
21.	Abdurazakova K. IJTIMOY SIYOSAT: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.	107
22.	Nazarova D., Boymirzayev O.O. YANGI O'ZBEKISTONDA BOLALARNI ZO'RAVONLIKNING BARCHA SHAKLLARIDAN	113

	HIMOYA QILISH MEXANIZMLARI	
23.	Kudratova U. TALABALAR AKADEMIK ERKINLIGI MEZONLARI	119
24.	Jiyanmuratova G. YOSHLAR ELEKTORAL FAOLLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI SOTSIOMADANIY OMILLAR	123
25.	Ma'mirova O. DAVLAT VA MAHALLIY HOKIMIYAT BOSHQARUV ORGANLARI TIZIMINI NOMARKAZLASHTIRISHNING O'ZBEKISTON TAJRIBASI	128
26.	Salayev F. MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOY-SIYOSIY RIVOJLANISHIDA MILLATLARARO MUNOSABATLARNING TA'SIRI	135
27.	Ibragmov J. MEHNAT NIZOLARI VA ISH TASHLASHLAR	138
28.	Ergashev K., Shaymardonova G. KORRUPSIYA JAMIYATDAGI IJTIMOY ILLAT	145
29.	Бозаров А. НЕОГРАМШИАНСКАЯ КОНЦЕПЦИЯ ГЕГЕМОНИИ В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ.	151
30.	Qarshiboyeva M., Mirsoliyeva N. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLAR MA'NAVIYATI	159
31.	Mirraximov B. YOSHLAR SIYOSIY ONGI SHAKLLANISHIDA IJTIMOY TARMOQLARNING TA'SIRI	163
32.	Ergashev K.E. O'ZBEKISTON VA QOZOG'ISTONDA DIN ERKINLIGI VA DINIY MUNOSABAT	168
33.	Shirzad R. YOSHLAR HAYOTI MUAMMOLARI: GLOBAL TENDENSIYALAR VA QIYOSIY TAHLIL (O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON MISOLIDA).	176
34.	Gong Yi Feng. THE REVIVAL OF THE SILK ROAD: FROM HISTORICAL DEPTH TO 2025 — A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN RELATIONS	189
35.	SHI FENGKAI. CHINA'S ECONOMIC MIRACLE AND THE SILK ROAD REVIVAL: A STUDY OF CHINA-UZBEKISTAN	197

	COOPERATION.	
36.	Rakhimov M. YOUTH SPIRITUAL DEVELOPMENT THROUGH COOPERATION WITH INTERNATIONAL ORGANIZATIONS IN THE FOREIGN POLICY OF NEW UZBEKISTAN	201
III. MUSTAQILLIK DAVRIDA O'ZBEKISTONNING IJTIMOIIY-SIYOSIY, IQTISODIY, MADANIY RIVOJLANISHI		
37.	Qahramon R. YANGI O'ZBEKISTONDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN TUB ISLOHOTLARNING AHAMIYATI	207
38.	Isakov B.N. GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON YOSHLARIDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASH VA MA'NAVIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.	220
39.	Jurakulov J. YOSHLAR O'RTASIDA FANLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT MADANIYATINING O'RNI.	224
40.	Yarkulov A. YEVROPADA URUSH PAYTIDA VAYRON QILINGAN YODGORLIKLARNI QAYTA TIKLANISHI.	232
41.	Abdusalomova S. MARKAZIY OSIYODA TRANSPORT INTEGRATSIYASI: GLOBALLASHUV TENDENSIYALARI VA YOSH AVLODNING MADANIY TRANSFORMATSIYASI.	241
42.	Abdusalomova S. GLOBALLASHUV JARAYONIDA O'ZBEKISTONDA FUQARO AVIATSIYASI TARIXI VA YOSHLAR MADANIYATIGA TA'SIRI.	248
43.	Mirzoyeva F., Boboxonov Sh. O'ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI QO'LLAB-QUVVATLASH MUAMMOLAR VA IMKONIYATLAR.	252
44.	Muminov B. MAMLUKATIMIZDA MODDIY MADANIY MEROSNI TARG'IB QILISHNING AHAMIYATI.	259
45.	Mirzoyeva F. O'ZBEKISTON HUDUDLARI UCHUN IQTISODIY XAVFSIZLIK MODEL.	268
46.	Qurbonova M. MILLIY MADANIYAT VA GLOBALLASHUV:	273

	MUVOZANAT MASALASI.	
47.	Mirzoyeva F., Rashidi O. BIZNESNI RIVOJLANTIRISH TUSHUNCHASI VA ELEKTRON TIJORATNING UNDA TUTGAN O'RNI (AFG'ONISTON MISOLIDA).	278
48.	Abdurazakova K., Rustamova A. RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING JAMIYATDA BOLALAR RIVOJIGA TA'SIRI.	282
49.	Jo'raqulov J. SHAYBONIYLAR DAVLATIDA ILMIY VA MADANIY HAYOT.	291
50.	Xurromova S. IMOM AL-BUXORIY MAJMUASI – ISLOM SIVILIZATSIYASINING NODIR MEROSI.	300
51.	Razzakova N., Axunova D. IJTIMOIY ISH TA'LIM INNOVATSION USULLAR: TALABANING KASBIY RIVOJLANISHI VA KELAJAKDAGI MUVAFFAQIYATLARI.	304
IV. GLOBALLASHUV DAVRIDA YOSHLARNING AXLOQIY VA VALEOLOGIK STRATEGIYALARI		
52.	Alimboyeva R. YOSHLAR SOG'LIGINI MUSTAXKAMLASHDA JISMONIY MASHQLARNI ORGANIZMGA TA'SIRINING HUSUSIYATLARI.	314
53.	Alimboyeva R. BASKETBOLCHILARNING XUJUM VA HIMOYA TEXNIKASINI MUSTAXKAMLASH METODIKASI.	319
54.	Alimboyeva R., Xolbekova Sh. YOSHLAR HAYOTIDA KURASHNING TARBIYAVIY AHAMIYATI.	324
55.	Xaitmetov F., Nuzilloeva G. MAKTABDA JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA O'QUVCHILAR FAOLIYATINI TASHKILLASHTIRISH USULIYATI.	330
56.	Alimboyeva R., Majidova O. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBURNING "BOBURNOMA" ASARIDA SPORT MUSOBAQALARINI TASVIRLANISHINING AHAMIYATI.	336

57.	Alimboyeva R., Norkobilova SH. JISMONIY TARBIYA DARSLARIDA SOG'LOMLASHTIRUVCHI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH METODIKASI.	342
58.	Sobirova D. ZAMONAVIY GLOBALLASHUV SHAROITIDA INSON QADRI	349

To'plam materiallari mualliflarning tahriri holatida chop etildi.

Bosmaxonaga berildi

20.04.2026. bosishga ruxsat etildi 21.04.2026

Bichimi 60x84/16 Ofset qag'ozi. Timer New Roman garnituras

Nashr bosma tabog'i 3,8

Adadi 50 nusxada. Buyurtma № 02-19

“LAVITA PRINT MCHJ nashriyoti

Toshkent shahar, Bunyodkor shoh ko'chasi 27 A-uy

